

**AQSH ADABIYOTI TARIXI VA TARAQQIYOTIDA SHAXS VA DAVR
MUNOSABATLARINING NAZARIY ASOSLARI**

NASRIYEVA GUZAL ZULFIDDIN QIZI

*BSMI, the teacher of English language
department*

E-mail: mavlavivon@gmail.com

Tel: +998905100445

Annotatsiya: *Dunyo adabiyoti kontekstida AQSh adabiyoti o‘z o‘rni va mavqeyiga ega, ta’sir darajasi kuchli va yuqori bo‘lgan, shaxs va jamiyat masalalari yaqqol aks etgan xalqchil adabiyotlardan sanaladi. Garchand boshqa rivojlangan, yuksak darajaga madaniylashgan mamlakatlardan nisbatan yosh bo‘lsa-da, mustaqillikka erishgandan so‘nggi davrida keskin taraqqiy etgan. Benjamin Franklin va boshqa ko‘p qirrali daho siymolar o‘z hissalarini qo‘shishdi. Amerikada ijtimoiy fikr va adabiyot, ilm-ma’rifat ana shu qudratli aql sohibi ta’sirida shakllandi desak xato bo‘lmaydi.*

Kalit so‘zlar: *Adabiy oqim, kapitalizm, gotika, romantizm, ma’rifatparvarlar.*

Abstract: *In the context of world literature, US literature has its own place and position, is considered one of the popular literatures with a strong and high level of influence, which clearly reflects the issues of the individual and society. Although it is relatively young compared to other developed and highly cultured countries, it has made rapid progress since gaining independence. Benjamin Franklin and other versatile geniuses contributed. It would not be wrong to say that social thought, literature, and science in America were formed under the influence of this powerful mind.*

Key words: *Literary flow, capitalism, Gothic, romanticism, enlightened people.*

Аннотация: *В контексте мировой литературы литература США имеет свое место и позицию, считается одной из популярных литератур с сильным и высоким уровнем влияния, ярко отражающей проблемы личности и общества. Хотя она относительно молода по сравнению с другими развитыми и высококультурными странами, с момента обретения независимости она добилась быстрого прогресса. Бенджамин Франклин и другие разносторонние гении внесли свой вклад. Не будет ошибкой сказать, что общественная мысль, литература и наука в Америке формировались под влиянием этого могущественного ума.*

Ключевые слова: *Литературное течение, капитализм, готика, романтизм, просвещенные люди.*

1492-yilda Genuyalik Kolumb tomonidan rasman kashf etilgan yangi dunyo – Amerikaning ochilishi insoniyatning global tarixidagi eng katta voqea bo‘ldi. Butunlay yangicha hayot qurilishi mumkin bo‘lgan bu yangi imkoniyatlar mamlakatida hamma narsa hali yangi va sof edi, madaniyatli odamzot hali hech narsani buzishga ulgurmagan edi. Biroq hamman narsa butunlay boshqacha bo‘lib chiqdi. Yevropadan kelgan muhojirlarning bu hududlarga joylashishi XVII asrdan boshlangan bo‘lsa, XVIII va XIX asrlarga qadar ham davom etdi. Shunday qilib, XVIII asrning ikkinchi yarmida bu o‘lkada Amerika Qo‘shma shtatlari paydo bo‘ldi.

Jahon adabiyoti tarihiga kirish imkonini beruvchi sifatdagi adabiyot Amerikada faqat XIX asrda, Vashington Irving, Jeyms Fenimor Kuper kabi

yoʻzuvchilar adabiy maydonda paydo boʻlgan paytdan boshlandi. Bunga qadar bu qitʼada faqat bir nechta koʻchmanchilar kundaliklar, eslatmalar, xronikalarni saqlab qolishgan edi. Amerikaning birinchi koʻchmanchilarining jonli surati, yangi yerlarga joylashishning ogʻir va azobli kunlari haqidagi Amerikaning 17 asrdagi hayotiy manzaralarini aks etuvchi hikoyalar sifatida bu kundaliklar ham aslida qimmatli manbadir. XVIII asrda Amerikada mustaqillik uchun kurash ketayotgan davrda markaziy oʻrinni Angliya va Frantsiyadan kelgan maʼrifatparvarlik gʻoyalari egallaydi va yangi Angliyada shaharlar oʻsib bordi, universitetlar yaratildi, gazetalar chiqib boshladi. Birinchi adabiy oqim – ingliz oʻquv adabiyoti va “Gotik” romani taʼsiridagi romanlar paydo boʻldi. Bu yoʻnalishda Genri Brekkenrij (1748-1816), Brokden Braun (1771-1810), Timoti Duaytning (1752-1818) turli janrdagi asarlari paydo boʻldi:

Amerika maʼrifatparvarligi Angliya, Fransiya, Germaniya maʼrifatparvarlari singari mualliflarni ilgari surmaganlar. Biz Franklin, Jefferson, Peyn va boshqalarning asarlarida Volterning yorqinligi va zukkoligini, Lokk tafakkurining teranligini, Jan-Jak Russoning notiqlik va ishtiyoqini, Miltonning poetik tasavvurini topa olmaymiz. Ular mutafakkirlikdan koʻra koʻproq shaxs va jamiyat munosabatlariga har doim oʻz munosabatini bildirib turgan amaliyotchi edilar va, albatta, eng kami sanʼatkor ham edilar. Ular Yevropa maʼrifatparvari gʻoyalarini oʻzlashtirib, mavjud imkoniyatlarni hisobga olib, oʻz mamlakatlarida qoʻllashga harakat qildilar. Bu borada, Tomas Peyn ularning eng dadil va eng radikal edi.

XIX asr Amerika hayotida kapitalizmning notekis rivojlanishi, iqtisodiy taraqqiyotning sekinlashuvi asrning ikkinchi yarmida iqtisodiy va ijtimoiy qarama-qarshiliklarini yuzaga keltirdi. Bu vaqtga kelib, mamlakatdagi ijtimoiy ongda eskirgan illyuziyalar va xurofot hukmron edi. Amerikaning inqilobdan keyingi davrdagi rivojlanishning keskin sekinlashuvi natijasida paydo boʻlgan umidsizlik kayfiyati oʻlkadagi yoʻzuvchilarni mavjud ijtimoiy real voqelikka qarshi romantik ideal izlashga chorlaydi. Ayni davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat AQSh milliy adabiyotining ijodkorlari boʻlgan romantik adabiyot vakillarini yetishtirdi. XIX asr boshlarida Yevropada milliy adabiyotlar allaqachon shakllangan va oʻziga xos milliy hususiyatlarni oʻzida jamlab ulgurgan boʻlsa, Amerika adabiyoti bu vaqtda endi belgilanayotgan, shakllanayotgan edi.

Amerikalik romantiklarga oʻz davrida jiddiy va muhim vazifalar yuklangan edi. Ular milliy adabiyotni shakllantirishdan tashqari, yosh millatning butun axloqiy va falsafiy kodeksini yaratish hamda uning shakllanishiga yordam berish kabi shaxs va jamiyatni taraqqiy ettirishdek yuksak vazifani amalga oshirishi kerak edi. Bu davr uchun romantizm voqelikni badiiy rivojlantirishning eng samarali usuli edi, albatta, busiz millatning, shaxsning estetik taraqqiyot jarayoni mukammal

bo‘lmasdi. Ilk Amerika romantizmining eng yirik yozuvchilari V.Irving, D.F.Kuper, V.K.Bryant, D.P.Kannedi va boshqalar bu davrda ilk asarlarining paydo bo‘lishi bilan Amerika ilk marta xalqaro e’tirofga sazovor bo‘ladi.

Vashington Irvingning (1782-1859) ota-bobolari Gollandiyadan bo‘lib, Amerikaning Vashington shtatiga ko‘chirilgan edi. U faoliyatini Londonda -- ingliz adabiyoti namunalari o‘qish va ingliz adabiy doiralari bilan yaqindan munosabat o‘rnatishdan boshladi. Yozuvchining 1819-yilda nashr etilgan hikoya va ocherklar to‘plamidan iborat “Chizgilar kitobi katta shuxrat keltiradi. Xristian diniga mansub bo‘lgan V.Irving jamiyat va shaxs munosabatlariga o‘zgacha nigoh bilan boqadi va bu qarashni asarlariga ham singdiradi. U musulmon dunyosiga va diniga xayrixohlik bilan qarab, o‘sha davrlarda qul sifatida olib kelingan arablardan turli hikoyalar eshitib, ularni badiiylashtiradi. “Al-Hamro” kitobiga kirgan “Uch sohibjamol hikoyati”, “Arab munajjimining rivoyati”, “Shahzoda Ahmad al-Kamol yoki oshiq qalandar”, “Marv vasiyati” kabi hikoyalarda arablarning donishmandligi haqida so‘z yuritadi. V.Irving “Muhammad tarixi” kitobida Muhammad payg‘ambarning dono, aqlli, donishmand kishi bo‘ganligini xayrixohlik bilan ta’riflab, payg‘ambar tarixiga oid muhim manbalarni berib o‘tadi. Bu asar jahondagi ko‘pgina tillarga tarjima qilingan. Amerika adibi Mark Tven ustoz deb bilgan V.Irving Amerika adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. Ayni chog‘da, Mark Tvenning ko‘plab yumoristik hajviyalari Vashington Irving ijodini esga soladi.

Shuningdek, bir nechta asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan Fenimor Kuper ijodi ham 19 - asr Amerika adabiyotining bebaho xazinasidir. U o‘z asarlarida qora tanlilarni jamiyatdagi o‘rnini izlaydi va ularga mustaqil shaxs sifatida munosabat bildiradi. Jeyms Fenimor Kuper 1789-yil Amerikaning Nyu Jersey shtatida zodagon oilasida tug‘ulgan. 31 yoshida Amerika inqilobi tarixini yorituvchi birinchi “Ehtiyotkorlik” romanini yozadi. Keyinchalik tarixiy sarguzasht uslubida yozilgan “Josus” romani yozuvchiga katta shuxrat keltirdi. 32 ta roman, 10 jilddan ortiq sayohatnomalar va bir necha jild publitsistik asarlar muallifi Kuperning “So‘nggi mogikan”(1826), “Cho‘l”(1827), “Izquvar”(1840), “Chingachguk – ulkan ilon”(1841) va boshqa romanlarida oq tanlilarga qarshi kurashgan Amerika indeyslarining hayoti, vatanparvarligi tasvirlangan. “Lotsman”(1823), “Boston qamali”(1825) romanlari dengizchilarning sarguzashtlariga bag‘ishlangan. “Qandingni ur”, “Geydenmauer yoki Benediktliklar”, “Jallod yoki uzumzorlar abbatligi” va boshqa romanlarda Yevropadagi voqealar tasvirlangan tarixiy romanlar turkumini tashkil qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эшонқул Н. Момоқўшиқ: қисса ва ҳикоялар. – Тошкент: Гафур Гулом, 2019. – 332 б.

2. Eshonqul N. Tobut / “O‘z AS”, 1992, 17 iyul.
3. Nasriyeva Guzal Zulfiddin Qizi. (2023). DEPICTION OF SOCIAL LIFE IN THE NOVEL “MEHRODDAN CHAYON” BY ABDULLA KADIRI. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(04), 88–94. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue04-16>
4. Nasriyeva Guzal Zulfiddin Qizi. (2023). THE CONCEPT OF TOLERANCE IN ENGLISH MEDIA AND PRESS. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(02), 74–81. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue02-14>
5. Qizi, N. G. Z. (2022). Psychoanalytical Approach in English Literature. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(12), 34-38. Retrieved from <https://www.cajlpc.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/632>
6. Qizi, N. G. Z. . (2022). Literature as Discourse. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 266–271. Retrieved from <https://www.grnjournals.us/index.php/ajshr/article/view/1600>